

AVLONIYNING AXLOQ HAQIDAGI QARASHLARI

Saidaxmedova Madinabonu Saidazimovna

Turkiston milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri

marifatparvarlik gʻoyalari targʻibotchisi, dramaturg, jurnalist va shu bilan birgalikda 100 dan ortiq sheʼrlar muallifidir. Shoir sifatida u oʻnlab, yuzlab sheʼrlar bitgan. Ular xoh eski urf-odatlar haqida boʻlsin, xoh vatan yoki maktab-maorif masalasiga bagʻishlangan boʻlsin, u qalamga olgan sheʼr bor-ki inson va uning axloqiy kamoloti, yuksak maʼnaviyati, bir soʻz bilan aytganda chin insoniy fazilatlar tasvirlanadi, maʼrifiy mazmun yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham uning sheʼrlarida xalq didaktikasi bilan birgalikda yangi zamon pedagogikasi uygʻunlashib ketadi. Avloniy yoshligidan ilmga chanqoq, tirishqoqligi tufayli ilm olishni kanda qilmaydi. Dastlabki ilmni Oʻqchidagi eski maktabda Akramxon domlada savod chiqaradi. Soʻng Shayxontoxurdagi Abdumalikboy madrasasida Mulla Umar Oxunda tahsil koʻradi. Keyinchalik oilaviy sharoitning ogʻirlashuvi tirikchilik dardi yosh shoirning ilm olishiga bir muncha qiyinchiliklar tugʻdira boshlaydi. Ammo shunda ham “1891 yildan boshlab, faqat qish kunlarida oʻqub, boshqa fasllarda mardikor ishladim”¹ - deb yozadi Avloniy. U yoshligidan mustaqil mutoala bilan shugʻullanib, oʻz bilimni oshirib boradi. Keyinchalik esa u dastlabki faoliyatini matbuotda faol namoyish eta boshlaydi. Uning ijodini bevosita matbuot bilan bogʻlashimiz mumkin. 1909-1917-yillar Avloniy ijodiy faoliyatida katta burilish yasadi. U “Shuhrat” gazetasini va “Tong” jurnalini tashkil etishda, “Jamiyati xayriya”ni ochishda yetakchilik qildi. Abdulla Avloniy “Adabiyot yoxud milliy sheʼrlar” nomli toʻrt qismdan iborat toʻplamning birinchi kitobini, “Birinchi muallim” va „Ikkinchi muallim“ deb nomlangan oʻquv kitoblarini chop ettirdi. Abdulla Avloniy oʻttiz yildan ortiqroq badiiy ijod bilan shugʻullandi. Uning madaniyatimiz tarixiga qoʻshgan hissasi beqiyosdir. Ayniqsa, pedagogik faoliyati, taʼlim-tarbiya borasidagi ishlari ibratlidir. Uning taʼlimiy-axloqiy asarlari orasida “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobi alohida ahamiyatga egadir. Avloniyning ushbu didaktik asari insonning yaxshi va yomon xulqlariga bagʻishlangani, hikoyatlardagi mazmunning muhim maʼrifiy ahamiyatga molikligi, xalqni qoloqlik uyqusidan uygʻotishga qaratilgani, daʼvatkorligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga misol qilib asarning kirish qismida keltirilgan ushbu parchani koʻrishimiz mumkin:

Har kun oʻluram shomgʻacha men gʻamga giriftor,

Har shab yonaram otasha parvona kabi zor.

Hech kimsa emas bu meni ahvolima voqif,

Men xastayamu millatim oʻlmish nega bemor?

Avloniy kitobni kirish qismini ushbu jumlarlar ila boshlar ekan ilm, axloq, tarbiya, poklik ila xasta bemor millatni dardiga davo boʻlishni istaydi. Ushbu kitob yuqori sinf oʻquvchilari

¹ Avloniy.Toshkent tonggi. T., 1979. -B.373

uchun yaratilgan bo‘lib, nafaqat o‘quvchilar balki adabiyot ixlosmadlari va axloq havaskorlari uchun ham nodir qo‘llanmadir. Asar 66 ta hikmat, ibrat va pandnomalardan tashkil topgan bo‘lib, insoniylik hislatlarini mujassamlashtirgan o‘z davrining mukammal qo‘llanmalaridan biridir. Ushbu kitobni inson uchun zarur bo‘lgan pandnoma deyish mumkin. Shuningdek XX asr boshlaridagi millatning qoloqligi, ma‘naviyat, tarbiya va axloq tushunchalaridan yiroqligi, yoshlar xulqidagi, ilmidagi mummolarga yechim sifatida Avloniy ushbu kitobni yaratdi. Kitob sabr, muhabbat, hilm, intizom, axloq, xulq, iffat, hayo, itoat, xayrixohlik, munislik, sadoqat, adolat, vijdon, vatanga muhabbat, tarbiya kabi bir qancha kundalik turmushimizda foydalanishimiz kerak bo‘lgan hikmatlarni jamlagan. Avloniyning ushbu asari diniy-ma‘rifiy bilim, hadislar bilan ham har tomonlama boyitilgan. Bunga misol qilib asarda keltirilgan “Payg‘ambarimiz Olim bo‘l, ilm talab qilguvchi bo‘l yoki ilmni eshitguvchi bo‘l, hech bo‘lmasa shularga muhabbat qiluvchi bo‘l, beshinchisi bo‘lma, halok bo‘lursan”² deya aytgan so‘zlarini “Aqsomi ilm” nomli hikmatida mohirona qo‘llaganini ko‘rishimiz mumkin. Avloniyning «Ilm» va «Aqsomi ilm» bobida diniy va dunyoviy ilm insonning eng oliy va muqaddas fazilatlari na‘munasi ekanligini anglashimiz mumkin. Aql ilm tajriba bilan kamol topadi. Avloniy fikricha, ilm har ishda bizga rahnamo, ikki dunyo saodatiga eltuvchi ulug‘ ne‘matdur. Ilmsiz kishi mevasiz daraxt kabidur. Asar muallifi ilmni ikki qismga: ilmi diniy va ilmi faniyga ajratadi. Ammo u bu ilmlar o‘rtasiga to‘siq qo‘ymaydi, aksincha, ikki ilm ham insonni har tomonlama mukammalikka, komil inson bo‘lishga undaydi. Diniy kishi bo‘lish uchun ham hisob, handasa, tarix, hikmat, tib, kimyo, ziroat kabi faniy ilmlarni o‘rganish zarurligini ta‘kidlaydi. Muallif fikricha, har bir millatning taraqqiy va taoliysi yoshlarning ilm va marifatiga, hunar va san‘atiga bog‘liqdir. Darhaqiqat ilm-ma‘rifatli, kasb-hunarli yoshlar millat kelajagining asosiy tayanchlari hisoblanadi.

Avloniyning “Sabr” nomli hikmatida har bir ishga sabrlik ila yondashish lozimligini va aynan shu sabr qilish yo‘lida inson boshiga keladigan balo va qazo, zahmat va mashaqqatlarning barchasini yengib o‘tib Xaq taoloning mukofotiga ajr va savobga erishishini keltirib o‘tadi. Inson bu hayot qiyinchiliklarida chidam bardoshli bo‘lishi oqibatida sabr deb atalmish ne‘matga erishadi. Sabr – ruhiy hayot bilan moddiy hayotni ajratib turuvchi bir tushunchadir. Sabr qilish inson ruhini tarbiyalaydi. Bunda nafaqat insonning ruhi tarbiyalanibgina qolmasdan, inson ma‘naviy kamolotga aqlan o‘shishga, rivojlanishga erishadi. Moddiy qiyinchilikka ucharaganda ham sabrli inson qiyinchiliklarni yetuk fazilat va axloqqa egaligi tufayli yengib o‘tadi. Aytish joizki, sabr – barcha fazilatlarning onasi hisoblanadi. Chunki, u inson qalbida yaxshilikni oshiradi. Insondagi har bir fazilat esa sabrga muhtojdir. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining “Tarbiya” nomli hikoyatini tahlilga tortar ekanmiz tarbiya axloqning boshlang‘ich bo‘g‘ini, ilmining asosi ekanligini anglaymiz. Ilmsiz ammo tarbiyali kishi, ilmli tarbiyasiz kishidan afzaldir. Bola tug‘ilishi bilanoq uning qalbiga tarbiya

² Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild.T., 2006. -B.50

urug‘ini qadashimiz lozimdir. Zero u urug‘ni ma’naviyat, tarbiya, axloq bilan sug‘orib borishimiz kerak. Bolalikdan qalbga ezgulik ila qadalgan urug‘ yillar davomida unib, o‘z o‘z mevasi bilan odamlarni bahramand qiladi, ularga huzur beradi. Demak hamma narsa tarbiyaga bog‘liq. “Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir”³ Tarbiyani ham turli qismlarga ajratishimiz mumkin. Jumladan bular: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, ruhiy tarbiya va axloq tarbiyasidir. Inson barcha tarbiyalar jamlanmasiga muhtojdir. Tarbiya qancha ko‘p amalda qo‘llansa shuncha mukammallikka erishilar. Tarbiya berishda ustozlar o‘rgatayotgan ilmiga avvalo o‘zlari amal qilsalar so‘ngra o‘zlarining amallaridan misol ko‘rsatsalar, bunday tarbiya bolaga tez yetib boradi va ta’siri kuchli bo‘ladi. Agar aksi bo‘lib, o‘rgatuvchi ustozning o‘zi aytgan so‘zlariga amal qilmasa, tarbiyalanuvchilarda shak-shubha uyg‘onur.

Minbar uzra jilva aylab va’z etarlar qilma deb,
O‘zlarin xilvatda ko‘rsang, oni qilmoqda emish.

Ichma suv derlar biza oltun-kumush asbobda,
Bilsamiz maqsudlari qo‘ltiqg‘a urmoqda emish.⁴

“Turkiy guliston yoxud axloq” asarining Axloq nomli hikoyatida shunday bir ajoyib fikr yuritiladiki, axloq insonlarni “yaxshilikg‘a chaqiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilm”⁵dur. Demak, axloq insonning ruhiy-ma’naviy kamolotini yuksaltiruvchi ilmdir. Xulosa qilib aytganda, A.Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ilgari surilgan yuksak g‘oyaviy-axloqiy qarashlar insoniyatning ma’naviy kamoloti uchun muhim ma’rifiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. — T.: Ozbekiston, 2002.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasiga kirish. — T.: Fan, 2007.
3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. T., 2006.
4. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. T., 2006.

³ Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar 2-jild. T., 2006, 38-bet

⁴ Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar 2-jild. T., 2006, 40-bet

⁵ Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar 2-jild. T., 2006, 34-bet